YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI	839
Maxmonov Uktam Ashurovich	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI PROGNOZLASH METODLARI	845
Bozorova Madina Raxmat qizi	



HUDUDIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MEHMON UYLARINING ULUSHINI OSHIRISHNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	850
Dilbar Xasanovna Aslanova, Jasur Farxodovich Fattayev	
АНАЛИЗ РАЗРАБОТКИ ЖЕНСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СТИЛИСТИЧЕСКИХ И КОНСТРУКТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПЕТРО-МОДЫ.....	854
Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI OSHIRISHNING ASOSIY MOLIYAVIY YO'NALISHLARINI BOSHQARISH MASALALARI.....	859
Daniyarov Quwatbay Dáwirxanovich, Turdimuratova Gulsanem Asqar qizi	
BUXORO SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABINING MOLIYAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI VA BOSHQARUV TIZIMINI TAHLIL ETISH.....	866
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR ENSURING FOOD SECURITY AND ITS STRUCTURAL COMPOSITION.....	871
Mattiyev Sodiqjon Qodirovich	
ISSIQ-QURUQ IQLIM HUDUDLARIDA BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DINAMIK QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI TIZIMLARNING ARXITEKTURAVIY-INJENERLIK YECHIMLARI.....	876
Ahmadov Tolibjon Akmalovich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari tahlili.....	879
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOT VA UNI RAQAMLI NAZORAT SHAROITIDA QISQARTIRISH USULLARI.....	887
Nargiza Muzafarovna Babaeva	
YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
Azlarova Dilnoza Axrorovna	



TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI

Azlarova Dilnoza Axrorovna

Fan va texnologiyalar universiteti USAT
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish jarayonlarida tijorat banklari kreditlarining ahamiyati va iqtisodiy roli tadqiq etilgan. Maqolada kredit resurslarining korxonalarini modernizatsiya qilish, investision faollikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, sohadagi kreditlash amaliyotida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish hamda kredit-moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Yog'-moy sanoati, tijorat banklari, bank krediti, transformatsiya, modernizatsiya, investisiya, moliyaviy barqarorlik, kredit resurslari, sanoat korxonalarini, kreditlash mexanizmi, innovasion rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы значение и экономическая роль кредитов коммерческих банков в процессах трансформации предприятий масложировой промышленности Узбекистана. Проанализировано влияние кредитных ресурсов на модернизацию предприятий, повышение инвестиционной активности и обеспечение финансовой устойчивости. Кроме того, выявлены существующие проблемы в практике кредитования отрасли, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию кредитно-финансовых механизмов.

Ключевые слова: Масложировая промышленность, коммерческие банки, банковский кредит, трансформация, модернизация, инвестиции, финансовая устойчивость, кредитные ресурсы, промышленные предприятия, механизм кредитования.

Abstract. This article examines the significance and economic role of commercial bank loans in the transformation processes of oil and fat industry enterprises in Uzbekistan. The study analyzes the impact of credit resources on enterprise modernization, enhancement of investment activity, and obespечeniye financial stability. In addition, existing problems in the lending practices of the industry are identified, and proposals and recommendations for improving credit and financial mechanisms are developed.

Keywords: Oil and fat industry, commercial banks, bank loans, transformation, modernization, investment, financial stability, credit resources, industrial enterprises, lending mechanism.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, mazkur tarmoq korxonalarini texnologik yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirishda tijorat banklari kreditlari muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit resurslari korxonalarda investision faollikni rag'batlantirish, aylanma mablag'lar yetishmovchiligini bartaraf etish va innovasion loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, transformatsiya jarayonlarida kredit mablag'laridan samarali foydalanish, kredit risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada tijorat banklari kreditlarining yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilishdagi roli, kreditlash amaliyotining mavjud holati, sohadagi muammolar hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish va ularni bank kreditlari orqali moliyalashtirish masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda asosan sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, investision faollikni oshirish, kredit resurslaridan samarali foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorijlik iqtisodchi Peter S. Rose o'zining bank menejmentiga bag'ishlangan tadqiqotlarida tijorat banklari kredit siyosati, kredit risklarini boshqarish va investision kreditlash samaradorligini keng tahlil qilgan. Olim kreditlash jarayonida likvidlik, daromadlilik va risk o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash sanoat korxonalarini barqaror moliyalashtirishning muhim sharti ekanligini asoslab bergan.[1] Bundan tashqari, Peter S. Rose "Commercial Bank Management" asarida kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmlari keng tahlil qilingan. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va kredit risklarini baholash masalalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.[1] Uning tadqiqotlarida korxonalarini moliyalashtirish jarayonida likvidlik, risk va daromadlilik o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muhimligi qayd etilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Frederic S. Mishkin bank tizimining real sektorni moliyalashtirishdagi ahamiyatini tadqiq qilib, kredit resurslari iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Olimning fikricha, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan uzoq muddatli kreditlar sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etad.[2] Uning fikricha, tijorat banklari iqtisodiyotda investision jarayonlarni rag'batlantiruvchi asosiy moliyaviy institut hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarini uzoq muddatli kreditlash ularda ishlab chiqarish modernizatsiyasini ta'minlashning muhim omili sifatida baholangan.

Rossiyalik iqtisodchi olim O. I. Lavrushin tomonidan kredit munosabatlarining nazariy asoslari, kredit mexanizmlari va bank kreditining iqtisodiy mohiyati atroflicha yoritilgan. Olim kreditlash jarayonida qaytariluvchanlik, muddatlilik va to'lovlilik tamoyillariga qat'iy rioya qilish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.[3]

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.A. Abdullayeva O'zbekiston bank tizimi orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish masalalarini tadqiq etgan. Olimaning fikricha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kredit mexanizmlari sanoat tarmoqlarida investision faollikni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.[4]

Iqtisodchi olim Rahmonov B.X.ning ilmiy ishlarida investision kreditlash sanoat korxonalarini transformatsiya qilishning muhim moliyaviy manbasi sifatida baholangan. Olimning ta'kidlashicha, investision kreditlar orqali ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, texnologik modernizatsiyani amalga oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mumkin.[11]

Shuningdek, mahalliy olim Karimov I.T. oziq-ovqat va yog'-moy sanoati korxonalarini moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda lizing, faktoring va davlat kafolati asosidagi moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurligini qayd etgan. Olimning fikricha, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. [12]

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish jarayonlarida tijorat banklari kreditlari muhim moliyaviy resurs hisoblanadi. Biroq sohada kredit resurslaridan samarali foydalanish, investision kreditlashni kengaytirish, kredit risklarini kamaytirish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarur hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish jarayonlarida tijorat banklari kreditlarining ahamiyati va ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik tahlil, koeffitsiyent va korrelyasion tahlil usullari qo'llanildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari hamda yog'-moy sanoati korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari, jumladan, kredit qo'yilmalari hajmi, investision faollik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, sof foyda, aktivlar rentabelligi va kredit qaytarish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida transformatsiya jarayonlarida kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi va uning korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

O'zbekiston Respublikasida yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda tijorat banklari kreditlarining roli tobora ortib bormoqda. Hozigi kunda, aholini oziq-



ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash masalasi global iqtisodiyotda ham, milliy iqtisodiyotda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon bozorida go'sht va o'simlik yog'i narxlarining barqaror o'sib borishi esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki ishlab chiqarishni kengaytirish hamda agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevralda qabul qilingan PF-36-sonli "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [13] mamlakatda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini, jumladan yog'-moy sanoatini rivojlantirishda muhim strategik hujjat hisoblanadi. Mazkur Farmonda oziq-ovqat va yog'-moy sanoati korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investision loyihalarni tijorat banklari kreditlari orqali moliyalashtirish hamda eksport salohiyatini oshirish asosiy ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Farmon ijrosi doirasida tijorat banklari tomonidan yog'-moy va oziq-ovqat sanoati korxonalariga ajratilayotgan kredit resurslari hajmining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilash va aylanma mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan joriy etilgan imtiyozli kreditlash mexanizmlari korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va investision faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda mamlakatda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar samarasida ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshgan. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSH dollaridan oshgan bo'lib, eksport hajmi 510 million AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar tarmoqning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortganini va eksport salohiyati kengayganini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi uch yil davomida import o'rnini bosuvchi 75 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib, 289,9 million AQSH dollari miqdorida import o'rnini bosilgan. Natijada import hajmi 7,4 foizga qisqargan. Respublika sanoati tarkibida esa oziq-ovqat sanoatining ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshgan.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarini transformatsiya qilishda asosiy moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Kredit resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishni jadallashtirish va eksportbop mahsulotlar hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bois kelgusida ushbu tarmoqda investision kreditlashni kengaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda (1-jadval) [13].

1-jadval

Tijorat banklari kreditlari ta'sirida yog'-moy sanoati korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zgarish dinamikasi¹

№	Ko'rsatkichlar	Kreditlashgacha holat	Kreditlashdan keyin	O'zgarish dinamikasi	Ilmiy tahlil
1	Ishlab chiqarish quvvati	100%	140%	+40%	Modernizatsiya hisobiga quvvat kengayadi
2	Qayta ishlash darajasi	100%	155%	+55%	Chuqur qayta ishlash texnologiyalari joriy etiladi
3	Asosiy fondlar yangilanishi	35%	80%	+45%	Kredit hisobidan uskunalar modernizatsiya qilinadi
4	Tannarx darajasi	100%	82%	-18%	Energiya va resurs tejash samarasi
5	Rentabellik	9%	16%	+7 f.p.	Foydalilik sezilarli oshadi
6	Eksport ulushi	12%	27%	+15%	Xalqaro bozorga chiqish kengayadi
7	Energiya sarfi	100%	78%	-22%	Energiya tejamkor texnologiyalar

1-jadval Tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarining iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit mablag'lari asosan korxonalarini modernizatsiya qilish, asosiy fondlarni yangilash va texnologik jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'z navbatida barcha ishlab chiqarish parametrlarining yaxshilanishiga olib kelgan.

Avvalo, ishlab chiqarish quvvatlarida sezilarli o'sish kuzatilgan. Kreditdan oldingi holatga nisbatan ishlab

1 Муаллиф ишланмаси. Ёғ-мoy sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlari, tijorat banklari kredit resurslari va tarmok statistik ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.



chiqarish hajmi o'rtacha 40 foizga oshgan bo'lib, bu zamonaviy uskunalarni joriy etish va texnologik liniyalarni kengaytirish hisobiga amalga oshgan. Shu bilan birga, qayta ishlash darajasi 55 foizgacha o'sgani chuqur qayta ishlash texnologiyalarining joriy etilganligini anglatadi.

Asosiy fondlarning yangilanish darajasi ham sezilarli darajada oshgan bo'lib, 35 foizdan 80 foizga yetgan. Bu holat bank kreditlari hisobidan eskirgan uskunalarning zamonaviy, avtomatlashtirilgan texnologiyalar bilan almashtirilganligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tannarx darajasi o'rtacha 18 foizga pasaygan. Bu, asosan, energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilishi va ishlab chiqarish jarayonlarining optimallasuvi bilan bog'liqdir. Shuningdek, energiya sarfi 22 foizga kamaygani resurslardan samarali foydalanish darajasining oshganini ko'rsatadi.

Moliyaviy natijalar tahliliga ko'ra, korxonalarining rentabellik darajasi 9 foizdan 16 foizgacha oshgan bo'lib, bu foydadorlikning sezilarli yaxshilanganini anglatadi. Sof foyda hajmi esa o'rtacha 48 foizga ko'paygan.

Eksport salohiyati ham ijobiy dinamikaga ega bo'lib, eksport ulushi 12 foizdan 27 foizga yetgan. Bu holat mahsulot sifatining yaxshilanishi va xalqaro bozor talablariga moslashuv bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga asosan, tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarining transformatsiya jarayonida asosiy moliyaviy drayver vazifasini bajaradi. Kredit resurslarining maqsadli yo'naltirilishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik va eksport salohiyati bir vaqtning o'zida yaxshilanadi (2-jadval).

2-jadval

Tijorat banklari kreditlari asosida yog'-moy sanoati transformatsiyasi, swot tahlil²

S — Kuchli tomonlar (Strengths)	W — Zaif tomonlar (Weaknesses)
Bank kreditlari hisobiga modernizatsiya jarayonlarining tezlashishi	Kreditga yuqori darajada bog'liqlik
Ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi	Qarz yukining ortishi ehtimoli
Qayta ishlash darajasining o'sishi	Ayrim korxonalarda moliyaviy boshqaruv zaifligi
Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish	Eski texnologiyalarni to'liq almashtirmaslik
Qo'shilgan qiymatning oshishi	Foiz stavkalariga sezgirlik
Uzbekistan davlat qo'llab-quvvatlov siyosati	Innovation kadrlar yetishmasligi
O — Imkoniyatlar (Opportunities)	T — Xavf-xatarlar (Threats)
Eksport bozorlarini kengaytirish	Foiz stavkalarining oshishi
Chuqur qayta ishlashni rivojlantirish	Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi
Yangi mahsulot turlarini yaratish	Tashqi bozorda kuchli raqobat
Davlat investisiya dasturlari bilan integratsiya	Valyuta kurslarining beqarorligi
"Yashil iqtisodiyot" texnologiyalariga o'tish	Import mahsulotlar bosimi
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	Makroiqtisodiy risklar

2-jadvalda keltirilgan SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarining transformatsiya jarayonida asosiy moliyaviy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Kredit resurslarining jalb qilinishi natijasida korxonalarda modernizatsiya jarayonlari tezlashib, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymoqda hamda texnologik yangilanish darajasi ortib bormoqda.

Kuchli tomonlar tahliliga ko'ra, kredit mablag'lari hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi, qayta ishlash darajasining yuqorilashi va energiya tejamkor texnologiyalarning joriy etilishi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz hukumati tomonidan sanoatni qo'llab-quvvatlash siyosati ushbu jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Zaif tomonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonalarining kredit mablag'lariga yuqori darajada bog'liqligi, moliyaviy boshqaruvdagi ayrim kamchiliklar hamda kadrlar salohiyatining yetarli emasligi transformatsiya jarayonlarining barqarorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Imkoniyatlar qismida esa eksport bozorlarini kengaytirish, chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymatni oshirish, yangi mahsulot turlarini yaratish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish orqali tarmoqning uzoq muddatli rivojlanish salohiyati yuqori ekanligi aniqlandi.

Xavf-xatarlar tahlili esa tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi, xomashyo narxlarining beqarorligi, tashqi bozorlardagi kuchli raqobat hamda valyuta kurslari tebranishlari korxonalar



faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda, tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarining transformatsiya jarayonida muhim moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Kredit resurslarining ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashga yo'naltirilishi natijasida korxonalarining iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, kredit mablag'lari hisobidan ishlab chiqarish quvvatlari kengaygan, qayta ishlash darajasi yuqorilgan, energiya va resurs sarfi kamaygan, rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilangan hamda eksport salohiyati sezilarli darajada oshgan. Bu esa bank kreditlarining yog'-moy sanoatida faqat moliyaviy emas, balki texnologik va institutsional transformatsiya jarayonlarini ham rag'batlantirayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida kredit mablag'larining samarali yo'naltirilishi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida tarmoqda ayrim muammolar mavjudligi ham aniqlandi. Xususan, bank kredit foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta'minoti bilan bog'liq cheklovlar, ayrim yog'-moy sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlaridagi kamchiliklar va aylanma mablag'larning yetishmasligi ularning bank kredit resurslaridan samarali foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Fikrimizcha, mazkur muammolarni bartaraf etishda quyidagi takliflar ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi:

tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarini uchun uzoq muddatli va past foizli investisiya kreditlarini kengaytirish;

kredit mablag'larini asosan texnologik modernizatsiya, avtomatlashtirish va energiya tejamkor uskunalarni joriy etishga yo'naltirish;

yog'-moy sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish;

eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini ko'paytirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish;

banklar va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish.

Umuman olganda, tijorat banklari kreditlari yog'-moy sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi, texnologik yangilanishi va eksport salohiyatini oshirishda asosiy drayver omillardan biri bo'lib, respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Commercial Bank Management / Peter S. Rose. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 915 p.
2. The Economics of Money, Banking and Financial Markets / Frederic S. Mishkin. – 13th ed. – Boston: Pearson Education, 2022. – 720 p.
3. О.И.Лаврушин. Банковское дело: учебник. – Москва: КноРус, 2021. – 800 с.
4. Ш.А.Абдуллаева. Банк иши: дарслик. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2022. – 536 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2019.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Банк тизими бўйича йиллик ҳисобот. – Тошкент, 2024.
7. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. Агросаноат тармоқларини молиялаштириш бўйича статистик маълумотлар тўплами. – Тошкент, 2024.
8. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Review. – Washington D.C., 2023.
9. International Monetary Fund. Financial Development and Banking Sector Stability in Emerging Economies. – Washington D.C., 2022.
10. Қодиров А.А. Агросаноат корхоналарини банк кредитлари орқали молиялаштириш самарадорлиги. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – Тошкент, 2023. – №4. – Б. 115–123.
11. Раҳмонов Б.Х. Тижорат банкларининг инвестицион кредитлаш амалиёти ва уни такомиллаштириш йўналишлари. // “Молия” журнали. – Тошкент, 2022. – №6. – Б. 45–52.
12. Каримов И.Т. Озиқ-овқат sanoati корхоналарини молиялаштиришнинг замонавий механизмлари. // “Бозор, пул ва кредит” журнали. – Тошкент, 2024. – №2. – Б. 67–74.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида Фармони. 16.02.2024 йилдаги ПФ-36-сон. <https://lex.uz/docs/6802687>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100